



MARKETING

ilmiy, amaliy va ommabop jurnal

2024-YIL, DEKABR
№10-SON

MARKETING

BIZNES

BRENDING

SAVDO

INNOVATSIYA

RAQAMLI MARKETING

ELEKTRON TIJORAT

MARKETING AUDITI

2025

Bizning ikkita o'q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri - iqtisodiyot bo'lsa, biri - ma'naviyatdir. Ma'naviy buyuk xalq - iqtisodiy tomondan ham buyuk bo'ladi.

№240874

Shavkat Mirziyoyev



9710 xalqaro daraja

ISSN: 3060-4621

www.marketingjournal.uz



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Elena Zarova Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Kasimova Fatima Tulkunovna, i.f.d., TKTi professori;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Odilova Sitara Sayfitdin qizi, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Axmedova Mavluda Shavkatovna, PhD, ISFT instituti Menenjment kafedrasini dotsenti;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD., TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Baibag'yshov Ermek, PhD., Naryn State University (Narin Davlat Universiteti) rektori

Dr. Kedar Mehta, PhD, Germaniyaning Yangi energiya tizimlari instituti (Institute of new Energy Systems) professori;

G'ofurov Azizbek Umarjonovich, PhD., Farg'ona davlat universiteti dotsenti;

Mirzayev Abdullajon Topilovich, DSc, prof., Farg'ona davlat universiteti kafedra mudiri;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Abduraxmanova Matluba Maxamadaminovna, i.f.n., TDIU, Bank ishi va investitsiyalar kafedrasini professori d.v.;

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, PhD., TDIU tadqiqotchi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Bobojonov Baxrom Ro'zimovich, PhD., TDIU, Marketing kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Elektron nashr 390 sahifa. E'lon qilishga 2024-yil 28-dekabrda ruxsat etildi

HAMKORLARIMIZ:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2. Namangan muhandislik-texnologiya instituti
3. “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi



MUNDARIJA

Джурабаев Отабек Джурабаевич

**ОПТИМИЗАЦИИ ОПЕРАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ И ПОВЫШЕНИЕ
ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ
КЛАСТЕРОВ7**

Назарова Рано Рустамовна, Алиева Зилола Маматвалиевна

**ОПЫТ ПЕРЕДОВЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В ЭФФЕКТИВНОМ
ИСПОЛЬЗОВАНИИ ОСНОВНЫХ ФОНДОВ В ПРОИЗВОДСТВЕ
СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ18**

Аренков Игорь Анатольевич, Икрамов Мурат Акрамович, Эшматов Санжар
Азимкулович

**РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В ИНТЕЛЕКТУАЛИЗАЦИИ
ПРЕДПРИЯТИЙ26**

Muradov Rustamjon Sobitxonovich

**RAQAMLI BIZNES MODELLARIDA DAROMAD DISPERSIYASINI
BAHOLASH USULLARI35**

Salimov Baxtiyor Tadjievich, Salimov Bahodir Baxtiyorovich, Salimov Sherzod
Baxtiyorovich

**KICHIK VA O'RTA BIZNESNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA
HUDUDLARNI IQTISODIY SALOHİYATIDAN FOYDALANISH41**

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich

**AGRAR BOZOR TARKIBIDA MARKETING MUNOSABATLARINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI59**

Bekmurodova Saodat Ikromovna

**QASHQADARYO MINTAQASI IQTISODIYOTINING INNOVATSION
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BARQARORLIGI TAHLILI66**

Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich, Doliyev Shoxabbos Qulmurot o'g'li

**HUDUDLARDA ENERGIYA SARFI VA ELEKTR ENERGIYA ISTE'MOLIGA
TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI75**

Norboyeva Nafisa Erkinovna

**OLIY TA'LIM MUASSASASINING TA'LIM JARAYONINI RAQAMLI
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH81**

Qodirova Xolida Salimovna

**ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY-
HUQUQIY ASOSLARI87**

Rustamova Ziyoda Anvar qizi

**RAQAMLI IQTISODIYOT TIZIMIDA MARKAZLASHTIRILMAGAN
MOLIYA TIZIMI VOSITALARI95**

Sultanova Laylo Ilyos qizi

**XORAZM VILOYATIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI TAHLILI 101**

Sultonov Sirojiddin Normurolovich

**AGROSANOATNI KLASSTER ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISHNING XORIJ
TAJRIBASI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI114**

Usmonov Bunyod Aktam o‘g‘li

**KOMPANIYALAR KAPITALDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA
TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR.....124**

Elov Olimjon Komilovich

**AHOLI BANDLIGINI TA‘MINLASH VA REAL DAROMADLARINI
OSHIRISHDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI ROLINI
BAHOLASH130**

Ermatov Nosir Toxirovich

**OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA STRATEGIK BOSHQARUVNI
TATBIQ ETISH YO‘NALISHLARI137**

Eshboyev Mirjalol Baxrom o‘g‘li, Rahimov Said Abdulloh Saminjon o‘g‘li

**GLOBAL SAVDODAGI TENGSIZLIKLARNI ANIQLASH: DAROMAD
GURUHLARI BO‘YICHA TIJORAT XIZMATLARI EKSPORTIDAGI
FARQLARNI KENG QAMROVLI TAHLIL QILISH.....145**

Jalilov Bahrom Sotiboldiyevich

INDICATORS FOR ASSESSING PRODUCTION POTENTIAL153

Kobilov Alisher

**DIGITAL ECONOMY: FEATURES, TRENDS, AND WAYS OF FURTHER
DEVELOPMENT160**

Madrimova Aziza Ambiyat qizi

**O‘ZBEKISTON MICE TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ
TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.....170**

Musyeva Shoirazimovna

**MEHMONXONALARDA MARKETING XIZMATLARI VA ULARNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI.....175**

Xamitdjanov Abdulaziz Xasanovich

**RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY STRATEGIK
YONDASHUVLARI.....185**

Xushvaqov Anvar Boqiyevich

**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA KICHIK BIZNES VA
TADBIRKORLIK FAOLIYATINING O‘RNI191**

Yusupov Ulug‘bek Mamayusupovich

**MODDIY RESURS TA‘MINOT TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH
USULLARI.....196**

Ikramov Maxmudjon Muxammedjanovich

**TURIZM SOHASIDAGI XIZMATLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI
BANKNING O‘RNI VA AHAMIYATI.....205**

Ilxamov Shavkat Islamovich

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKT NAZORAT MUHITINING
ISHONCHLILIGINI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ BAHOLASH..214**

Ismatov Raxmatilla Oltinovich

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI
TASHKIL ETISH224**

Jo‘rayev Farrux Do‘stmirzayevich

**AGROKLASTER TIZIMINI OPTIMALLASHTIRISHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI.....231**

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich

**TEMIR YO‘L TRANSPORTINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH
YO‘NALISHLARI.....247**

Jumayeva Muxlisa Abdug‘ani qizi

**INKLUZIV TADBIRKORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY-
METODOLOGIK ASOSLARI260**

Kadirova Maraljan Matyakubovna, Kurbanova Xurshida Idiyevna, Boltayeva Shaxnoza
Bebudovna

**IQTISODIYOTNING BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA, MAMLAKAT
INVESTITSIYA MUHITINI YANADA YAXSHILASHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI.....268**

Muhibillo Juraboyevich Uzoqov, Juraboyev Jurabek Muhibillo o‘g‘li

**MARKETING XIZMATLARINING NAZARIY ASOSLARI VA KONSEPTUAL
YONDASHUVLARI.....276**

Qudratov Aziz Dehqonboyevich, Jurayev Navruz Jurayevich

**OILAVIY KORXONALARDA CHIQINDISIZ XIZMAT KO‘RSATISH
MODELINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SAMARASI.....285**

Raximova Gulbaxor Xolmaxamatovna

**TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOB
VARAQLAR REJASINI XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH.....290**

Tulqinova Diyorakhon Maxmudjon qizi

**MARKETING ANALYSIS THROUGH MARKETING STRATEGIES OF A
CORPORATE RETAIL INDUSTRY OF UZBEKISTAN: AN EVALUATION OF
MARKETING PRACTICES.....300**

Махмүтхөджаева Луиза Сайфулловна, Тула Нодирбек Баходир угли

**РЕАЛИЗАЦИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОГРАММ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН.....310**

Таджиева Махлиёхон Джахонгир кизи

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ
РЫНКА ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ319**

Вахабов Асадулло Убайдулло угли

**РОЛЬ МАРКЕТИНГОВОГО УПРАВЛЕНИЯ В ПОВЫШЕНИИ
КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА328**

Baqoyeva Gulbahor Matyoqubovna

**RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING QIMMATLI QOG‘OZLAR
BOZORINI RIVOJLANTIRISH: YAPONIYA TAJRIBASI VA
O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI.....337**

Ivatov Irisbek

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA XALQARO TURIZM XIZMATLARI
BOZORINI RIVOJLANISHI.....346**

Yusupov Qudratjon Muxammadqodirovich

**QISHLOQ XO‘JALIGINI KO‘P UKLADLIGI SHAROITIDA SOHANI
MALAKALI KADRLAR BILAN TA‘MINLASHNING ILMIY ASOSLARI354**

Tuychiyev Alisher Juraevich, Nazarov Dilshat Primqulovich

**O‘ZBEKISTONDA PUL — KREDIT MEXANIZMI VA UNING DASTAKLARINI
IQTISODIY FAOLLIKNI TA‘MINLASHGA YO‘NALTIRISH361**

Norbekov Xursandmurod O‘ktam o‘g‘li

**BOZOR SHAROITIDA TURIZM SOHASI RIVOJLANISHINI MARKETING
ASOSIDA TARTIBLASHTIRISH368**

Muxamedova Aziza Ravshanovna

**SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI BAHOLASHNING
NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI.....375**

Abdujalilova Guzal Saydillayevna

**SANOAT KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI
MOLIYAVIY QO‘LLAB QUVVATLASH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH.....382**

IQTISODIYOTNING BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA, MAMLAKAT INVESTITSIYA MUHITINI YANADA YAXSHILASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Kadirova Maraljan Matyakubovna

BuxDU dotsenti, PhD,

Kurbanova Xurshida Idiyevna

T.I.Q.X.M.M.I. Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Buxoro tabiiy
resurslardan foydalanish instituti dotsenti.

Boltayeva Shaxnoza Bebudovna

BuxDU katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Iqtisodiyotning rivojlanishi, aholi turmush sharoitining yaxshilanib borishi va daromadlarining oshishi bir so'z bilan aytganda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik asosan milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiya mablag'larining hajmi va tarkibiga bog'liq. Shunday ekan, har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishi milliy iqtisodiyotga investitsiya mablag'larini jalb etishning barqaror muhitini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Kalit so'zlar: investitsion faoliyat, yashil iqtisodiyot, investitsion muhit, investitsiya va yashil iqtisodiyot, investitsiya jozibadorligini baholash.

Аннотация

Развитие экономики, улучшение условий жизни населения и увеличение доходов, словом, социально-экономическая стабильность во многом зависит от размера и состава инвестиционных фондов, привлекаемых в национальную экономику. Поэтому приоритетное направление стратегии социально-экономического развития каждой страны должно быть ориентировано на создание стабильной среды для привлечения инвестиционных средств в национальную экономику.

Ключевые слова. инвестиционная деятельность, зеленая экономика, инвестиционная среда, инвестиции и зеленая экономика, оценка инвестиционной привлекательности.

Abstract

The development of the economy, the improvement of the living conditions of the population and the increase of incomes, in a word, socio-economic stability mainly depends on the size and composition of the investment funds attracted to the national economy. Therefore, the priority direction of the socio-economic development strategy of each country should be focused on creating a stable environment for attracting investment funds to the national economy.

Keywords: investment activity, green economy, investment environment, investment and green economy, assessment of investment attractiveness.

KIRISH

Dunyo hamjamiyatining iqtisodiy taraqqiyot bosqichida birorta ham mamlakat, hatto rivojlangan mamlakatlar ham investitsiyalarsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erisha olmaydi. Investitsiya resurslarini milliy iqtisodiyotlariga jalb qilmagan mamlakatlar esa iqtisodiy rivojlanish bo'yicha dunyo mamlakatlari darajasidan ancha orqada qolib ketishi mumkin. Shuning uchun ham mamlakatlar xahon mamlakatlari bilan samarali investitsiya siyosati orqali iqtisodiy globallashuv tizimiga intilib keladi.

Investitsion jozibadorlik deganda investitsion imkoniyatning potensial investorlar uchun jozibador yoki jozibador qiladigan xususiyatlari tushuniladi. U investorlarning ma'lum bir aktiv loyiha yoki bozorga kapital qo'yish qarorlariga ta'sir qiluvchi turli omillarni o'z ichiga oladi. Ularga misol tariqasida investitsion jozibadorlikka hissa qo'shadigan ba'zi bir asosiy komponentlarni keltirishimiz mumkin:

Investitsiyalarning rentabelligi (ROI)- Potensial investorlar odatda jozibador daromad olishga qaratilgan imkoniyatlarga jalb qilinadi. Yuqori ROI investitsiya qilingan mablag'ga nisbatan katta foyda yoki daromad olish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xavf profili — investorlar investitsiya bilan bog'liq risk darajasini baholaydilar va ularning risklarga bardoshlilikini o'rganadilar. Barqaror daromadli past riskli investitsiyalar konservativ investorlar uchun yanada jozibador bo'lishi mumkin, yuqori daromad olish potensialiga ega bo'lgan yuqori riskli investitsiyalar esa tajovuzkor investorlarni jalb qilishi mumkin.

Bozor salohiyati — investitsion faoliyat yuritayotgan bozor yoki sanoatning hajmi va o'sish salohiyati uning jozibadorligini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Investorlar ko'pincha tez sur'atda daromad olish istiqbollari va mahsulot yoki xizmatlarga barqaror talabga ega bozorlarda imkoniyatlar izlaydilar.

Raqobat ustunligi — ham noyob texnologiya, kuchli brend va raqobatbardosh ustunlikka ega investitsiyalar investorlar uchun yanada jozibador bo'lishi zarur. Barqaror raqobatbardosh ustunlik kompaniyaga uzoq muddatda bozordagi mavqeyini va rentabelligini saqlab qolishga yordam berish imkoniyatini yaratadi.

Boshqaruv jamoasi - investitsion imkoniyat ortidagi boshqaruv jamoasining ish uslubi, sifati va tajribasi uning jozibadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Investorlar muvaffaqiyatga erishgan va strategik rejalarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan malakali va ishonchli boshqaruv guruhlariga ehtiyoj sezadilar va ularni izlaydilar.

Moliyaviy barqarorlik — investorlar investitsiya imkoniyatining moliyaviy barqarorligini, jumladan, daromadlarning o'sishi, rentabellik pul oqimlarini shakllantirish va moliyaviy barqarorlik kabi omillarni baholaydilar. Kuchli moliyaviy holat investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Regulyativ muhit- investorlar investitsion faoliyat yuritilayotgan muhitni tartibga solish, jumladan, tartibga solishga muvofiqlik, siyosiy barqarorlik, huquqiy

risklar va hukumat siyosati kabi omillarni hisobga oladi. Barqaror va qulay normativ-huquqiy baza investitsiya jozibadorligini oshirishiga imkon yaratadi.

Barqarorlik va ESG omillari - atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) masalalari investorlar uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va yaxshi boshqaruv amaliyotiga sodiqligini ko'rsatadigan investitsiyalar ijtimoiy ongli investorlar uchun yanada jozibador hisoblanadi.

Chiqish imkoniyatlari - investorlar IPO, qo'shilish, sotib olish yoki ikkilamchi bozor operatsiyalari kabi investitsiya uchun mavjud bo'lgan potensial chiqish imkoniyatlarini baholaydilar. Jozibador chiqish imkoniyatlarining mavjudligi likvidlik va salohiyatli foydani ta'minlash orqali investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Investitsiya va investitsion jozibadorlikni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan ko'plab monografiyalar, ilmiy maqolalar jurnallarda ko'plab chop etilgan bo'lib, ularda bu sohada mavjud muammolarning turli jihatlari yoritilgan.

“Investitsiya” atamasi lotin tilidagi “invest” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “qo'yish”, “mablag'ni safarbar etish”, “kapital qo'yilmasi” ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirilishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.¹

Xorijiy investitsiyalar – bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish hamda samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga kiritiladigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

Chet el olimlaridan L.I. Yuzvovich, S.A. Degtryareva, Ye.G. Knyazevoy, N.N. Livensev, G.M. Kostyunina [2]. va mamlakatimiz iqtisodchi-olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlar investitsiya to'g'risida darslik va o'quv qo'llanmalar nashir etilgan. Investitsiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: “Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega” [3]. Shuningdek, mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui ham investitsiya muhitini anglatadi.

Ayni paytda, jahon amaliyotida xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni iqtisodiyotning istiqbolli va yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlariga

¹ A.Sh. Bekmurodov, Ya.K. Karriyeva, I.U. Nematov, D.H. Nabiyeu, N.T. Kattayev. “Xorijiy investitsiyalar” o'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot- 2010.-150 b.

joylashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, investitsiya loyihalarini umummilliy va mintaqaviy darajada moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirish, investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish va investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarish vositalarining o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot jarayoni shuni ko‘rsatdiki, investitsiyalar iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ishlab chiqarishni ko‘paytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va bozorlarni kengaytirishga yordam beradi. Biroq, barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun investitsiyalarni ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydigan yashil loyihalarga yo‘naltirish kerak.

METODOLOGIYA

Maqolada respublikadagi investitsion muhit va uni jozibadorligini oshirish masalarini keng tahlil qilish, shuningdek, induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy statistik kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari 2023-yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalar hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish samaradorligini tahlil qildi.


Tahlil davomida IPI (Investment Performance Index — Investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi) indeksidan foydalanildi. Ushbu indeks hududlarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi hududning respublika taraqqiyotiga qo‘shayotgan ulushiga qanchalik mos ekanligini ko‘rsatadi. IPI indeksi uchun me‘yordagi ko‘rsatkich 1,00 ga teng va bu hududning barqaror rivojlanishi uchun investitsiyalarni jalb qilish siyosati yaxshi yo‘lga qo‘yilganini anglatadi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Respublika bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 352,1 trln. so‘mga yetgan. Bu 2022-yildagiga qaraganda 22,1 foiz ko‘p. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 58,9 foiz oshgan va 167,7 trln. so‘mga teng bo‘lgan.

Shunga qaramasdan, hududlar miqyosida investitsiyalarning taqsimlanishida tafovutlar saqlanib qolmoqda. Masalan, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo‘yicha respublika miqyosidagi yuqori va quyi o‘rinlarni egallagan uch hudud qiymatlari orasidagi farq 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qariyb 3,7 baravarni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo‘yicha esa 2,9 baravarni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylari ma‘lumotlari asosida hisoblangan IPI indeksiga ko‘ra, quyidagilar aniqlandi:

Asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha aksariyat hududlarda me‘yor ko‘rsatkichga qaraganda yuqori qiymatlar qayd etildi. Bu borada Sirdaryo (2,16) va Buxoro (1,78) viloyatlari yaqqol ajralib turmoqda. Bunga investorlar uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi hamda strategik ahamiyatga ega mega loyihalarning vaqtinchalik ta‘sirini sabab sifatida keltirish mumkin. Xorazm (0,99) va Navoiy (0,96) viloyatlarida me‘yordagi ko‘rsatkichga yaqin qiymatlar qayd etildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar bo'yicha Andijon (1,00) viloyatida IPI indeksi me'yor ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, Sirdaryo (3,69) va Buxoro (2,20) viloyatlarida me'yordagidan ancha yuqori natija kuzatildi. Yuqori indeks qiymati viloyatlarga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalardan yanada samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.



1-rasm. 2023-yil 9 oyi davomida hududlar bo'yicha investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi indeksi.¹

Toshkent shahrida (0,60) indeks 1 dan ancha past bo'ldi. Bu esa ushbu hududga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ko'proq e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi. Shuningdek, tadqiqot davrida qayd etilgan ko'rsatkichlarni 2023-yilning 9 oyi natijalari bilan taqqoslash asosida quyidagilar aniqlandi:

2023-yilning to'rtinchi choragida uchinchi chorakdagiga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar IPI indeksi bo'yicha eng yaxshi natija Xorazm (0,14 punkt) va Samarqand (0,11 punkt) viloyatlarida kuzatildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar IPI indeksi bo'yicha Sirdaryo (0,24 punkt) va Andijon (0,20 punkt) viloyatlari boshqa hududlarga nisbatan eng yaxshi natijalarni qayd etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

¹ Manba: <https://imrs.uz/files/publications/ru/57750.pdf>

Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, shuningdek, uning jozibadorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagicha izohlash mumkin:

2-jadval

Investitsiya muhitini yanada yaxshilash, hamda jozibadorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari

№	Asosiy yo'nalishlar	Amalga oshirish mexanizmi
1.	Makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash	- Inflyatsiya va foiz stavkalarini nazorat qilish: Ushbu ko'rsatkichlar investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Barqaror inflyatsiya darajasi va past foiz stavkalari investorlar uchun qulay sharoit yaratadi. - Davlat qarzlarini boshqarish: Davlat qarzlarini miqdori va ularning boshqarilishi iqtisodiyotning barqarorligiga ta'sir qiladi. Qarzlar barqarorligi va ularning o'z vaqtida to'lanishi investorlar ishonchini oshiradi.
2.	Qonunchilik va institutsional islohotlar	- Qonunchilikning soddalashtirilishi va shaffofligi: Investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning soddalashtirilishi va shaffofligi investorlar uchun muhim. Korrupsiyani kamaytirish va huquqiy himoyani ta'minlash investitsiya muhitini yaxshilaydi. - Sud tizimi islohotlari: Mustaqil va adolatli sud tizimi investorlarning huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.
3.	Infratuzilmani rivojlantirish	- Transport va logistika infratuzilmasi: Samarali transport va logistika infratuzilmasi investitsiya jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Yo'l va temir yo'l tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi aeroportlar va dengiz portlarini qurish iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. - Energetika ta'minoti va texnologik infratuzilma: Energetika ta'minoti va texnologik infratuzilmaning yaxshilanishi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi investorlar uchun qulay sharoit yaratadi.
4.	Soliq siyosatini takomillashtirish	- Soliq yukini kamaytirish: Soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish investorlar uchun jozibadorlikni oshiradi. Bu o'z navbatida kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga xizmat qiladi. - Soliq imtiyozlari va rag'batlantirish: Investorlar uchun soliq imtiyozlari va rag'batlantirish choralari joriy etilishi investitsiyalarning ko'payishiga olib keladi.
5.	Mehnat bozorini rivojlantirish	- Kasb-hunar ta'limini rivojlantirish: Malakali kadrlar tayyorlash investitsiyalarning samaradorligini oshiradi. Kasb-hunar ta'limi va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish mehnat bozorining talablariga moslashadi. - Ishchi kuchining harakatchanligini oshirish: Ishchi kuchining malakasini oshirish va hududlararo harakatchanligini ta'minlash investitsiya muhitini yaxshilaydi.
6.	Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish	- Sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini yaxshilash: Yuqori sifatli sog'liqni saqlash va ta'lim tizimi jamiyatning umumiy farovonligini oshiradi va bu o'z navbatida iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

№	Asosiy yoʻnalishlar	Amalga oshirish mexanizmi
		- Madaniy va ijtimoiy loyihalar: Madaniy va ijtimoiy loyihalarga investitsiya qilish investorlar va aholining umumiy farovonligini ta'minlashga yordam beradi.
7.	Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish	- Savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash: Tashqi savdo-sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va xalqaro bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirish investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. - Chet el investitsiyalarini jalb qilish: Chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish va ularni himoya qilish investitsiya muhitini yaxshilaydi.

2-jadvalda taklif etilgan yoʻnalishlar milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim rol oʻynaydi. Oʻzbekistonning investitsion jozibadorligining ortishi oʻz navbatida yetakchi xorijiy kompaniyalarning mamlakatimizda ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qiziqishini yaxshilaydi, mehnat unumdorligini oshiriladi, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga qaratilgan yangi yechimlar ishlab chiqiladi, iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirishda, davlatlarining iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. A.Sh. Bekmurodov, Ya.K. Karriyeva, I.U. Nematov, D.H. Nabiyeu, N.T. Kattayev. "Xorijiy investitsiyalar" oʻquv qoʻllanma. T.: Iqtisodiyot- 2010.-150 b.
2. Л. И. Юзвович, С.А. Дегтярева, Е. Г. Князевой. ИНВЕСТИЦИИ Учебник для вузов. Екатеринбург Издательство Уральского университета 2016 . – 543 с.
3. Ливенцев Н. Н., Костюнина Г. М. Международное движение капитала (Инвестиционная политика зарубежных стран) : учебник. – М. : Экономист, 2004. – 368 с.
4. Vahabov A.V., Xajibakiev Sh,X., Muminov N.G "Xorijiy investitsiyalar" oʻquv qoʻllanma – T.: Moliya, 2010. –153 b.
5. Isomitdinova, G. K. (2019). About problems of accounting of corporate governance in the conditions of modernization of economy. ISJ Theoretical & Applied Science, 11(79), 449-453.
6. Mustafakulov SH.I. Investitsion muhit jozibadorligi. Ilmiy-amaliy qoʻllanma. –Toshkent:Baktria press, 2017.-320 b.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-45395022>.
8. Hakimova N.A. "Yashil" iqtisodiyotga oʻtish yoʻnalishlari va ustuvorlik xususiyatlari// Iqtisodiyotda innovatsiya jurnali. –2019. –54-60 bet.
8. Qodirova Maraljan Matyakubovna. The contemporary trends in the digitalization of the agricultural sector and the socio-economic sphere. «Globallashuv va iqlim oʻzgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash: muammo va

yechimlar» respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024 yil 15 – may. 156-159 bet.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403508>

9. M.M. Kadirova. **THE CULTURE OF USING THE INTERNET BY CHILDREN**. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2023

10. Kadirova, Maral Matyakubovna. "Potentials of quest technology in the development of students' economic skills." Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities 2.1.5 Pedagogical sciences (2022).

11. Matyakubovna, Kadirova Maraljan. "Opportunities to use electronic resources in the development of economic skills of students in the independent educational process." Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities 1.1.5 Pedagogical sciences (2021).

12. Kadirova Maral Matyakubovna. O'ZBEKISTONDA AGROBIZNESNI XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. Ta'limda istiqbolli izlanishlar. xalqaro ilmiy-metodik jurnal № 6 2024.325-328 bet.

13. MM Кадирова . **Замонавий Таълим Технологиялари Воситалари Орқали Талабаларда Иктисодий Кўникмаларни Ривожлантириш Модели**. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND ..., 2022. 376-378

14. Kadirova Maral Matyakubovna. O'zbekistonda agrobiznesni xorijiy davlatlar tajribasi asosida rivojlantirish yo'llari. . TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal.325-328 b. № 6. 2024

15. Saribayevich , X. F., Sariyevich, X. X., Davlatov, S., Turobova, H., & Ruziyev, S. (2024). Analysis of Factors Affecting CO2 Emissions: In the Case of Uzbekistan. International Journal of Energy Economics and Policy, 14(4), 207–215.
<https://doi.org/10.32479/ijeep.16193>

16. 17.Rustamovna, Turobova Hulkar, and Narzullayeva Gulchehra Salimovna. "Possibilities Of Bio Economic Development In Uzbekistan." European Multidisciplinary Journal Of Modern Science 4 (2022): 860-866.

17. 18.Turobova, H. (2022). БИОЭКОНОМИКА: ВОЗМОЖНОСТИ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПЛОЩАДЕЙ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4689



2024-yil, dekabr. №10-son

Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Ingliz tili muharriri:

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Rus tili muharriri:

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Musahhih:

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

2024-yil, dekabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710.
ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi"
davlatlartaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**